

UDK. 372.881.111.1

Rashidova Feruza Rasulovna

Namangan davlat universiteti dotsenti

E-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Tel: (90) 552 02 58

**VIKTORIAN ADABIYOTI ADIBALAR NASRIDA QAHRAMONLAR
RUHIYATINI OCHISHDA FOYDALANILGAN PSIXOLOGIK TASVIR
VOSITALAR**

***Annotatsiya.** Maqolada Viktorian davri ayol yozuvchilari – Sharlotta Bronte, Emili Bronte, Anne Bronte va Jorj Eliot – nasrida qahramonlar ruhiyatini yoritishda qoʻllangan psixologik tasvir vositalari tahlil qilingan. Asosan ichki monolog, psixologik peyzaj, dialog va ramzlar qahramonlarning ichki dunyosini ochishda qanday rol oʻynashi misollar asosida yoritiladi. Maqola Viktorian nasrining badiiy-estetik xususiyatlarini va uning keyingi adabiyotga taʼsirini koʻrsatishga qaratilgan.*

***Kalit soʻzlar:** Viktorian adabiyoti, Bronte opa-singillar, Jorj Eliot, psixologik tasvir, ichki monolog, peyzaj, ramz.*

Feruza Rashidova Rasulovna

Associate professor at Namangan State University

E-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Tel: (90) 552 02 58

**PSYCHOLOGICAL DESCRIPTIVE DEVICES USED TO REVEAL THE
CHARACTERS' INNER WORLD IN THE PROSE OF VICTORIAN
WOMEN WRITERS**

***Abstract.** This article analyzes the psychological descriptive techniques used by Victorian women writers – Charlotte Brontë, Emily Brontë, Anne Brontë, and George Eliot – in their prose to reveal the inner world of their characters. It explores how inner monologue, psychological landscape, dialogue, and symbolic details serve as effective tools for character development. The study emphasizes*

the artistic and aesthetic value of Victorian prose and its influence on later literature.

Keywords: *Victorian literature, Brontë sisters, George Eliot, psychological description, inner monologue, landscape, symbolism.*

**Феруза Рашидова Расуловна,
Доцент Намаганского государственного университета**

E-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Tel: (90) 552 02 58

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ИЗОБРАЖЕНИЯ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ДЛЯ РАСКРЫТИЯ ВНУТРЕННЕГО МИРА ГЕРОЕВ В ПРОЗЕ ВИКТОРИАНСКИХ ПИСАТЕЛЬНИЦ

Аннотация. В статье анализируются психологические средства изображения, используемые викторианскими писательницами – Шарлоттой Бронте, Эмили Бронте, Энн Бронте и Джордж Элиот – для раскрытия внутреннего мира героев. Рассматриваются такие художественные приемы, как внутренний монолог, психологический пейзаж, диалог и символические детали. Подчеркивается их роль в создании глубоких и реалистичных образов, а также влияние викторианской прозы на последующую литературную традицию.

Ключевые слова: викторианская литература, сестры Бронте, Джордж Элиот, психологическое изображение, внутренний монолог, пейзаж, символ.

KIRISH

XIX asr o'rtalari ingliz adabiyotida psixologik tasvirning sezilarli darajada kuchayishi kuzatishimiz mumkin. Bu davr adabiy jarayonida realizmning mustahkamlanishi, ijtimoiy voqelikni haqqoniy aks ettirishga intilish bilan bir qatorda, inson ruhiy olamining nozik qatlamlarini badiiy ifodalashga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan ham ajralib turadi.[7] Ayniqsa, Viktorian davri

yozuvchilari, ularning orasida ayol adibalar, o'z asarlarida nafaqat tashqi voqealar harakatini, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va shaxsiy qarorlarini tasvirlash orqali adabiyotga yangi estetik yo'nalish olib kirdilar.

Shunday qilib, Sharlotta Bronte, Emili Bronte, Anne Bronte va Jorj Eliot romanlari ana shu jarayonning eng yorqin namunalaridan hisoblanadi. Ushbu adibalar ijodida o'sha davr jamiyatining turli ijtimoiy muammolari – tabaqaviy tengsizlik, gender masalalari, ta'lim va mehnatdagi ayollar o'rni, erkinlik va axloqiy qadriyatlar – badiiy talqin qilinishini kuzatishimiz mumkin. Misol qiladigan bo'lsak, Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" romanida ayol shaxsining mustaqillikka, erkinlik va o'z qadr-qimmatini himoya qilishga intilishi asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Shuningdek, Emili Brontening "Momaqaldiroqli davon"(Wuthering Heights) asarida esa insoniy ehtirolarning kuchi, muhabbat va nafratning murakkab uyg'unligi psixologik tahlil vositalari orqali ochib berilgan. Yana bohqa bir adiba, Anna Brontening "The Tenant of Wildfell Hall" romanida ayolning o'z huquqlarini himoya qilish, patriarxal tuzumga qarshi turishi ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan yoritiladi. Yana bir yozuvchi, Jorj Eliotning "Middlemarch" romanida esa individual orzular va ijtimoiy majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyat qahramonlarning ichki dunyosi orqali tahlil qilinganini ko'risjimiz mumkin.

Ularning asarlarida ko'tarilgan ijtimoiy adolat, gender tengligi, erkinlik va axloqiy masalalar muhokama qilinish bilan birga, qahramonlarning individual tajribasi, ichki kechinmalari va ruhiy dunyosi markaziy o'rin egallaydi. Adibalar nafaqat tashqi voqealarni tasvirlash bilan cheklanmay, balki qahramonlarning ong jarayonlari, shaxsiy iztiroblari, yashirin orzu-intilishlarini ham ochib berishga e'tibor qaratadilar.[8]

Ayni ushbu jihat Viktorian nasrini ilgariroq davrlardagi romantik adabiyotdan tubdan farqlaydi. Romantik adabiyotda ko'proq idealizatsiya va his-tuyg'ularning tashqi ifodasi ustun bo'lgan bo'lsa, Viktorian yozuvchilari insonning ichki olamiga chuqurroq kirib borishga urinib, realistik va psixologik tasvirga katta ahamiyat berdilar. Natijada Viktorian nasri o'z davrida nafaqat ijtimoiy voqelikni,

balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini yoritishga qodir bo'lgan yangi badiiy maktab sifatida shakllandi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ham bu jarayonning ahamiyatini alohida ta'kidlashadi. Masalan, Aleksanderning qayd etishicha, "Bronte opa-singillar asarlari inson ruhiyati va ichki kechinmalarini badiiy tasvirlashning yangi bosqichini yaratdi"[5]. Shu tariqa Viktorian davri ayol yozuvchilari nasri adabiy jarayonda psixologik tahlilning shakllanishiga katta hissa qo'shgan bo'lib, ularning ijodi keyingi adabiy oqimni taraqqiyoti rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Viktorian davri adibalarining nasriy asarlarida qahramonlar ruhiyatini ochishda qo'llanilgan psixologik tasvir vositalari tahlil qilindi. Buning uchun biz adabiy tahlil metodologik yondashuvdan foydalandik.

Adabiy tahlil usul orqali biz, asarlardagi qahramonlarning ichki dunyosini tasvirlashda ishlatilgan badiiy vositalar (ichki monolog, dialog, peyzaj, ramz, detallar) aniqladik va ularning funksional ahamiyati ko'rsatib berdik. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotni maqsadini yoritib berishda hamda Viktorian nasridagi psixologik tasvir vositalarini chuqurroq o'rganishga imkon berdi.

ADABIYOT TAHLILI

Viktorian davri nasrida inson ruhiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratgan adibalar Sharlotta Bronte, Emili Bronte, Anne Bronte va Jorj Eliot ijodida yorqin namoyon bo'ladi. Ularning romanlarida psixologik tasvir vositalarining turli shakllari – ichki monolog, psixologik peyzaj, dialog, ramz va badiiy detallar – keng qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Keling, tadqiqot etmoqchi bo'lgan har bir psixologik tasvir vositalarini ko'rib chiqaylik. Avvalo, ichki monolog badiiy psixologizni yoritishdagi asosiy unsurlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar qahramonlarning o'z-o'ziga nutqi, qahramonlarning ichki tuyg'ulari, ongida nimalar kechayotganini bilishimiz mumkin bo'ladi. Ichki monologni yaratishda Sharlotta Brontening "Jane Eyre" (1847) romanida bosh qahramonning mustaqillikka intilishi va shaxsiy ozodlikka bo'lgan qarashlari ichki nutq orqali ifodalanadi:

“I am no bird; and no net ensnares me: I am a free human being with an independent will.” [1]

Mazkur iqtibosdan bilishimiz mumkinki, Jeyn Eyning ruhiy kuchi va ichki ozodlikka intilishi qahramon nutqidan aniq ko‘rsatib berilganini. Bu parchadan yana boshqa badiiy tasvir vositalarini kuzatishimiz mumkin, jumladan metafora ya’ni o‘xshatish. SH.Bronte qahramonni qushga qiyoslash orqali erkinlik va mustaqillikka intilayotgan qahramon tasvirlashni niyat qilgan deb tushunishimiz mumkin. “Qush” nafaqat sharqda balki g‘arb adabiyotida ham erkinlik, mustaqillik ramzi sifatida qo‘llaniladi.

Keyingi psixologizmni yaratishda qo‘l keladigan unsur bu psixologik peyzaj yoki psixologik manzara hisoblanadi. Mazkur psixologik tasvir vositasidan eng ko‘p qo‘llagan adiba sifatida biz Emili Bronteni misol qilishimiz mumkin. Hattoki adiba asar nomini ham majoziy ma’noda “Momaqaldirimli dovon” deb atashi uning psixologik peyzajni qo‘llashga bo‘lgan ishtiyoqini ko‘rsatib turadi. Keling asardan olingan quyidagi parchani tahlil qilaylik.

“I wish I were a girl again, half savage and hardy, and free... and laughing at injuries, not maddening under them!” [2]

Ushbu tasvir orqali tabiat manzarasi qahramonning ruhiy beqarorligi bilan uyg‘unlashganini hamda psixologik tasvirni kuchayishiga xizmat qilganini payqashimiz mumkin.

Navbatda ko‘rib tahlil qilmoqchi bo‘lgan psixologik tasvir vositalaridan biri bu dialogdir. Aynan ushbu unsur adiba Anna Brontening “The Tenant of Wildfell Hall” (1848) asarida qahramonlarning ruhiy dunyosi ko‘proq dialoglar orqali ochishga uringanini bilish mumkin. Ushbu fikrimizga, Helenning o‘z o‘g‘li haqida aytgan quyidagi so‘zlari bunga misol bo‘ladi:

“I will not forsake my son to the tyranny of such a man. I will save him from his father’s worse example.” [3]

Ushbu satrlarda qahramonning axloqiy qat’iyati va ruhiy izzatoblari mujassam.

Bundan tashqari, yuqoridagi keltirilgan psixologik manzara, dialog, monologlardan taqshqari, qahramonlarning ruhiy iztiroblari, ichki kechinmalarini kitobxonga yetkazish uchun ramz va badiiy detallar ham yordam beradi. Ayniqsa, Jorj Eliotning “Middlemarch” (1871–1872) romanida ramziy detallar qahramon ruhiyatini ochishda alohida o‘rin tutadi. Masalan, Doroteaning hayoti haqida yozilar ekan, muallif shunday deydi:

“Her full nature, like that river of which Cyrus broke the strength, spent itself in channels which had no great name on the earth.” [4]

Bu ramziy tasvir Doroteaning imkoniyatlari va orzulari ijtimoiy cheklovlar tufayli ro‘yobga chiqmaganini bildiradi.

XULOSA

Viktorian davri ayol yozuvchilari o‘z asarlari orqali adabiyotga yangicha ruh olib kirdilar. Ularning romanlari faqat tashqi voqealar tasviriga emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, iztiroblari va orzulariga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi. Sharlotta Bronte yaratgan Jane Eyre obrazi insonning erkinlik va mustaqillikka intilish ramziga aylandi. Emili Bronte o‘zining “Wuthering Heights” romanida muhabbat va nafrat, quvonch va iztirob kabi keskin hissiyotlarni tabiat manzaralari bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchini inson ruhining bo‘ronli olamiga olib kirdi. Anne Bronte esa ijtimoiy adolat va ayol huquqlarini himoya qilish masalasini dialoglar orqali jonli va ta’sirchan tarzda ifodaladi. Jorj Eliotning qahramonlari esa ichki orzulari va tashqi dunyo cheklovlari o‘rtasidagi ziddiyat orqali o‘quvchini chuqur mulohazaga undaydi.[9]

Ularning asarlarida ruhiy tasvirning kuchi shundaki, o‘quvchi qahramonlar bilan birga iztirob chekadi, orzu qiladi, umid qiladi va hayotiy qarorlar ustida o‘ylaydi. Har bir obraz orqali inson qalbining murakkab qatlamlari ochilib, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi muvozanat masalasi o‘rtaga tashlanadi.

Shunday qilib, Viktorian nasri, ayniqsa ayol yozuvchilar ijodi, psixologik tasvir vositalarining keng qo‘llanishi bilan adabiyotda yangi davrni boshlab berdi. Bu adabiyot nafaqat o‘z davrining ijtimoiy muammolarini aks ettirdi, balki inson qalbining eng nozik kechinmalarini ham badiiy yoritib, bugungi o‘quvchi uchun

ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning merosi — inson ruhiyatini anglash va uni adabiy ifodalash borasida bebaho maktabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бронте, Ш. Джейн Эйр = Jane Eyre / пер. с англ. — Москва: Эксмо, 2019. — 640 с.
2. Бронте, Э. Грозовой перевал = Wuthering Heights / пер. с англ. — Санкт-Петербург: Азбука, 2020. — 384 с.
3. Бронте, А. Арендатор Уайлдфелл-Холла = The Tenant of Wildfell Hall / пер. с англ. — Москва: Издательство АСТ, 2018. — 512 с.
4. Элиот, Дж. Миддлмарч = Middlemarch / пер. с англ. — Москва: Наука, 1981. — 784 с.
5. Alexander, C. The Brontës: A Life in Letters. — London: Penguin, 2000. — 432 p.
6. Gilbert, S., Gubar, S. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. — New Haven: Yale University Press, 2000. — 742 p.
7. Eagleton, T. Myths of Power: A Marxist Study of the Brontës. — London: Palgrave Macmillan, 2005. — 216 p.
8. Sherry, N. George Eliot: A Critical Study of Her Life, Writings and Philosophy. — London: Macmillan, 1979. — 298 p.
9. Watt, I. The Rise of the Novel. — Berkeley: University of California Press, 2001. — 376 p.